

O'QUVCHILARDA MORFOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTISH METODIKASI

Xadjiyev Mirzabek Karshibay o'g'li

"Best" nodavlat ta'lim markazi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Hozirda xotiraga asoslangan ta'lim, o'qituvchining asosiy axborot manbasi sifatida bilim beruvchilik faoliyatiga turli munosabatlar bildirilayotgan, "Assalomu alaykum, talabalar (o'quvchilar), uyga qanaqa topshiriq berilgan edi?" yoki "Bugungi mavzuni yozib olamiz!" degan metodikaning eskirganligi ta'kidlanayotgan, aksariyat hollarda, ta'lim oluvchida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga urg'u berilayotgan sharoitda axborotni o'qib tushunish, muhim ma'lumotni izlab topa olish, boshqa manba bilan qiyoslab chiqish, uni qayta ishlash masalasi e'tibor markaziga qo'yilmoqda. Shunday holda bo'lishi tabiiy, zero, XXI asr kompetensiyalariga tayyorlash bolaning tug'ilganidan bog'chaga, maktabga ilk qadamlaridanoq boshlanishi taqozo qilinmoqda. Mehnat bozorida kechayotgan shiddatli raqobat sharoitida oliy o'quv yurti bitiruvchilarining kasbiy kompetentligiga yuqori talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, ish beruvchilar kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bitiruvchilardan savodxon, bir emas, bir necha tillarni biladigan mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu bilan birga, kasbga loyqlik, o'z sohasi bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalaridan kasbi doirasida mustaqil ravishda amaliy hamda oqilona foydalana olish va ijodiy munosabatini namoyon qila olish qobiliyati har bir mutaxassis, xususan, o'qituvchi uchun nihoyatda zarur. Ko'p narsadan xabardor bo'lsa-yu, biroq bu bilimlarni amalda qo'llay olmasa, bunday o'qituvchidan jamiyat ham, o'zi ham foyda ko'rmaydi. Shuning uchun ham har bir oliy ta'lim tizimidagi fanlar oldiga mutaxassislikka doir bilim, ko'nikma va malakalar qatorida zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali yetuk kompetentli kadrlarni tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Bu borada o'zbek tili fani mustasno emas. O'zbekiston





Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan "ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish" bo'yicha oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'yicha belgilangan vazifalar, "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmonida belgilangan davlat tilini ta'lim muassasalarida o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarini ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish ishlarini jonlantirishda soha mutaxassislarining faol ishtiroki taqozo qilinmoqda.

Ayniqsa, hozirgi kunda o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganayotgan boshqa millat vakillarining tilimizga bo'lgan hurmatini kuchaytirish borasida mavjud metodikani takomillashtirishga ehtiyoj katta bo'lmoqda. Barchamizga ma'lumki, talabalar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyatida ahamiyatga ega ekanligini bilishsa, o'zbek tili faniga qiziqish bildirishi mumkin. Yuqori bosqich talabalari mutaxassislik bo'yicha aksariyat o'zbek tilida yaratilgan adabiyotlarni o'qib tushunish, respublika miqyosida o'tkazilayotgan forumlar, konferensiyalarda tengdoshlari bilan muloqot qilish, shuningdek, o'zlarining ilmiy ishlari natijalarini o'zbek tilining ilmiy uslubida yozish va o'zbek tilida bayon qilish uchun fanning qanchalik muhimligini tushunishadi. Ammo 1-bosqichda o'qitilayotgan o'zbek tili fani zimmasida talabalik davriga endi qadam qo'ygan o'quvchilardalarda o'zbek tiliga chuqur hurmat uyg'otish, kelajakda kasbi taqozosi bilan o'zbek tiliga bo'ladigan katta ehtiyoj mavjudligini, ularning ongi-shuuriga yetkazish vazifasi turadi. Shu nuqtayi nazardan amaldagi o'zbek tili fanining o'qitilishi bilan bog'liq o'quv-me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqish quyidagi holatlar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni o'zbek tili fanidan kompetentli shaxs sifatida tayyorlashga xalaqit berayotganligini ko'rsatmoqda:

1. O'zbek tili fanini o'qitish bilan bog'liq muammolar:

- 
- a) o'quv rejalari bilan bog'liq muammolar;
- b) o'quv maqsadi va ta'lim mazmunidagi ayrim nomuvofiqliklar;
- d) nutqiy mavzularning XXI asr kompetensiyalariga muvofiqligi masalasi;
- e) o'zbek tili grammatikasini o'qitish borasidagi muammolar;
- f) o'qituvchilarning kompetentligi masalasi.

2. O'quvchilar bilan bog'liq muammolar:

- a) talabalarning o'zbek tilidan dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarining yetishmasligi;
- b) ona tili yoki davlat tiliga nisbatan xorijiy tillarni o'rganishni ustun qo'yish kabilar.

3. O'zbek tili ta'limi va o'quv materiallari muammolari:

- a) zamonaviy o'quv adabiyotlarining yetishmasligi;
- b) kompyuter texnologiyalari bilan qo'llab-quvvatlashdagi muammolar va sh.k.

Ilmiy tadqiqotimiz hajmidan kelib chiqib, ularning ayrimlariga to'xtalamiz. Bakalavr ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasida, ayniqsa, qoraqalpoq, qozoq guruhlarining o'quv rejalari auditoriya soatlari 90 soat sifatida ko'rsatilgan bo'lsa ham, ishchi o'quv rejada O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan ishlab chiqilgan fan dasturiga ko'ra talabalarga 45 ta nutqiy mavzuni o'rgatish nazarda tutilgan. Mazkur dastur (undan oldin amal qilgan dasturlar ham shu holat kuzatiladi) rus guruhlar uchun ham, shuningdek, turkiy auditoriya uchun ham baravar qo'llanilmoqda. Bu mutaxassislarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Yana e'tiborlisi shundaki, "O'zbek tili faqat og'zaki muloqot uchun o'rgatishga yo'naltirilayotganligi, vaholanki, O'zbekiston fuqarosi millatidan qat'iy nazar shu makonda tug'ilib voyaga yetib, shu yerda barobar huquqlarga ega bo'lib, kelajakda turli sohalarda, ma'muriy-boshqaruv tizimida ham teng faoliyat yuritishga haqli



ekanligi, buning uchun ularga o'zbek tilini xorijiy til sifatida, ya'ni «ikkinchi til sifatida» emas, balki davlat tili sifatida o'qitilishi zarurligi, o'zbek tiliga o'rganilishi anchagina mehnat talab qiladigan zarur fan sifatida emas, balki avval o'qiganlari asosida biroz gapirsa yetadigan oson va, eng yomoni, unchalik muhim bo'lmagan fan sifatida munosabatda bo'lishga fan dasturlari, o'qitish metodikasi yo'l qo'yib berayotganligi" masalasi keskin bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.² Kuzatishlarimiz aksariyat hollarda nutqiy mavzuga urg'u berilayotganligi, talabalarning o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini nutqiy mavzuga mos o'zlashtirishlari uchun yo'naltiruvchi usullarga kam murojaat qilinayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qo'shimcha adabiyotlar, lug'atlarga murojaat qilish, so'zlarning ma'no qirralari ustida ishlash borasida muammolar ko'zga tashlanadi. Shu tariqa til imkoniyatlaridan foydalanishda eng muhim asos hisoblangan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga ko'p e'tibor qaratishmaydi.

Har o'quv yili boshida 1-bosqich talabalaridan yozma ishlar (diktant, esselar) olinadi. Natijalar esa ko'pchilik talabalarning o'zbek tilidan savodxonlik darajasi me'yordan past ekanligini ko'rsatmoqda. Bu oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitishda fan dasturida belgilangan talaba bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni bajarishda qiyinchiliklar paydo qilmoqda. Barchamizga sir emas, bugungi globallashuv davri, shiddatli axborotlar oqimi, ayniqsa, hayotning turli sohalarida, shuningdek, ilm-fan tili sifatidagi mavqeyining ortib borishi talabalarning ingliz tiliga qiziqishini orttirmoqda. Aksariyat hollarda, bu o'zbek tili fan o'qituvchilari tomonidan salbiy holat sifatida qaraladi. Bizning qarashimizcha, bu salbiy emas, balki ijobiy holat sifatida baholanib, ana shu qiziquvchilikdan o'zbek tili fanidan bilim, ko'nikma va malakalarni, kompetensiyalarni shakllantirishda foydalanilishi lozim. Fanlararo bir-birini to'ldirish, ya'ni integratsiya, o'zbek tilini o'rganuvchining ona tili va xorijiy tillarga qiyoslanishi talabalarning motivatsiyasini kuchaytiruvchi omil bo'lishi mumkin.

O'zbek tili fanini metodik jihatdan ta'minlashda, albatta, muammolar ko'p, asosan, amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lgan fan uchun ta'lim vositalarining yetishmayotganligi barchamizga sir emas. Yangi fan dasturida yutimizda va chet elda chop qilingan eng so'nggi adabiyotlar foydalanishga tavsiya qilinganligi ayni muddao bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ilm-fan yangiliklari, fanni o'qitishdagi innovatsiyalar fan mazmunini uzluksiz boyitib borishni taqozo qilmoqda. Bunda bosma nashrlar bilan barobar elektron nashrlarning afzalliklari ham ortib borayotganligini e'tirof etish kerak. Darhaqiqat, ta'lim vositalarini yangi formatga o'tkazish davr talabiga aylanib bormoqda.

